

AHMAD A‘ZAMNING ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYANAVISLIGI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Azimova Maftuna Olimqul qizi

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti 2-kurs magistr talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Ahmad A‘zamning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi nimadan iborat ekanligi tahlil qilinadi va o‘rganiladi. Adibning badiiy mahorati hikoyalari asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ahmad A‘zam, o‘zbek adabiyoti, hikoya, real hayot, inson taqdiri, davr, tanqidiy nigoh, ijtimoiy muhit.*

Abstract: *This research paper evaluates the literary legacy of Ahmad Azam and his transformative influence on modern Uzbek prose. Through a rigorous examination of his short stories, the article elucidates the writer's unique aesthetic approach and narrative brilliance. The study focuses on how Azam integrates the intricacies of the human condition with the shifting social paradigms of his period, offering a profound critique of the contemporary environment.*

Keywords: *Ahmad Azam, Uzbek literature, short narrative, realistic portrayal, human condition, historical epoch, analytical outlook, societal context.*

Аннотация: *В настоящем исследовании предпринимается попытка осмыслить творческое наследие Ахмада Азама и определить его роль в эволюции узбекской прозы. На основе текстуального анализа рассказов автора выявляются грани его художественного мастерства и стилистического своеобразия. Особое внимание уделяется способности писателя синтезировать реалистическое изображение действительности с глубоким психологизмом, что позволяет по-новому взглянуть на социальную среду и судьбы личностей в переломные моменты истории.*

Ключевые слова: *Ахмад Азам, узбекская литература, малая проза, реализм, человеческая судьба, исторический контекст, критический дискурс, социальная реальность.*

Istiqlol davri adabiyotida yaratilgan asarlar mustaqilligimizdan oldin yaratilgan asarlardan ijod erkinligi, mafkuraviy cheklovlardan ozodligi, shaxs va ong o‘rtasidagi ruhiy kechinmalarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar mavzuning bosh g‘oyasi darajasiga ko‘tariladi. Ijod namunalari ijtimoiy buyurtma holatida emas, ortiqcha ramziy

timsollarsiz, ichki monologlarga to‘la holda yaratilishi ushbu davrning eng asosiy farqli tomonini tashkil qiladi.

Ahmad A‘zam o‘zbek adabiyotida yaratgan ijod namunalari bilan yangicha uslublar, yangicha qahramon, obrazlar va yangicha badiiy tafakkur olib kirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida Faxriyor Ahmad A‘zam haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “... u tengdoshlaridan farqli o‘laroq, biror yozuvchi yoki milliy adabiyotga taqlid qilmadi, fikrlash tarzi ham, mulohazakorligi ham sof o‘zbekcha edi. So‘zdan foydalanish mahorati, asarlarining betakror uslubi, jonli tili, ramzlar bilan yo‘g‘rilgan o‘ziga xos fabulasi – hamma-hammasi yangilik edi”¹¹⁹ Bular, ayniqsa, hikoyalarda o‘z ifodasini topgan. Ahmad A‘zamning hikoyalari shunchaki voqealar bayoni bo‘libgina qolmasdan butun jamiyat va inson o‘rtasida ichki, ruhiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklarni o‘zida jamlagan. Bularni adib psixologik tahlil hamda majoziy-ramziylik orqali keng miqyosda ifodalab beradi.

O‘zbek adabiyotida Ahmad A‘zam tomonidan yaratilgan hikoyalar quyidagi xizmatlari bilan ajralib turadi:

Realistik tasvirni detallar vositasida bilan aks ettirish. Ahmad A‘zamning ijodi ichki mohiyati chuqur, teranligi bilan alohida amiyatga molik. Realizmda bo‘layotgan voqeahodisalar aynan tasvirlansa, Ahmad A‘zam ushbu usuldan emas, realizmni ifodalash uchun falsafiy, hayotiy detallarga shunday chuqur ma‘no yuklagan holda asariga olib kiradi. Kundalik turmushning xususiyatlariga qo‘shimcha tarzda qahramonning ruhiy dunyosini, ichki olamini ochib beruvchi elementlar (soya, tush, xayol, majlis, koridor, haykal va boshqalar) vositasida hodisani yanada chuqurlashtiradi. Bosh qahramonning ichki tuyg‘u, olamini, qo‘rquvini shunchaki ifodalab bermasdan, ana shu detallar orqali vizuallashtiradi. Masalan, muallifning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidagi bosh qahramonning soyasi yo‘qolib qolishi natijasida butun bir obrazning hayotidagi o‘zgarishlarni, atrof-muhitda yuzaga kelgan va kelayotgan kontrastlikni olishimiz mumkin. Ushbu hikoyada Ahmad A‘zam birgina soya vositasida ham qahramonning ichki olamini, ham tashqi ishxonadagi reallikni, ham mansabdor shaxslarning holatini judayam aniq ifodalab beradi. Bundan tashqari, soya qahramondan ayrilib, uni o‘zgacha olamga mansub ekanligini ko‘rsatib beruvchi asosiy qurol sifatida tasvirlanadi. Ana shu detal vositasida xodimlar o‘rtasidagi munosabat, ortiqcha hech qanday mazmunsiz majlisbozliklar, vaqtni unumli foydalanish o‘rniga ziyoli qatlam vakillari uni ko‘rishga kelishi voqealari – barchasi oshkor qilinadi. Soya bu yerda shaxsiylik, vijdoniylik, tafakkur butunligidir. Yoki muallifning “Go‘zallik qirralari” hikoyasidagi haykal obyektini orqali ochiq aytib bo‘lmaydigan haqiqatlarni ana shu detal orqali kiritadi.

¹¹⁹ Faxriyor. Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon(maqola) Kirish rejimi: www.kh-davron.uz

Nima uchun Ahmad A'zam hikoyalarida bu majoziy elementlar vositasida reallikni ochib berdi? Uning hikoyalari shunchaki voqelikning yozma bayoni emas, unda realistik voqealar majoziy element vositalari bilan jipslashib ketadiki, natijada bu usul nasrni badiiy shartlilik imkoniyatlarini oshirib, hikoya janrini intellektual yuqori darajaga chiqaradi. Inson olamini, uning tafakkurini, ichki ziddiyatlarni realistik tasvir yordamida ifodalash biroz qiyin bo'lgani sababli ijodkor endi bu masalani yoritishda asosiy o'rinni elementlarga beradi va bu orqali ko'zlagan maqsadiga erisha oladi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni hajv qilish. Bundan tashqari, Ahmad A'zamning o'zbek hikoyanavisligiga qo'shgan asosiy yangiliklari sifatida jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni hajv qilishning yangicha usulini yaratgani va uning o'zbek hikoyalari safiga qo'shgani biz adabiyotshunoslar uchun juda katta ahamiyatga egadir. Uning bu kabi mahorati "Soyasini yo'qotgan odam", "Oyning gardishi", "Qatag'on yili", "Kichik ilmiy xodim Hamdamov" kabi hikoyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni hajviy ruhda yoritish o'zbek adabiyotida qadimiy an'analarga ega bo'lsa-da, zamonaviy hikoyachilikda bu kabi uslub umuman yangi mazmun va shakl kasb etdi. Ahmad A'zam hikoyalarida hajv yumor uchun emas, balki ijtimoiy tanqid va falsafiy jarayonlarni yuzaga chiqarish vositasi sifatida aks etadi. Muallif atrof muhitdagi soxtalik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik, mansabparastlik, ma'naviy-ma'rifiy bo'shliq va kamchiliklarni, yuzaga kelayotgan mudhish illatlarni ochiq fosh etishdan ko'ra, ularni kinoya, va ramziy obrazlar orqali ko'rsatadi. Bu uslub kitobxonni voqealarni tushunish davomida, chuqur o'ylantiradi va jamiyatdagi muammolarga loqayd bo'lmaslikka undaydi. Ahmad A'zam bu kabi ijodiy namunalari hikoyachiligimizda tanqidiy yo'nalishning yangi darajasini shakllantirdi. Bu esa o'quvchi bilan muallif, qahramon va jarayon o'rtasida muloqotni yuzaga keltiradi. "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasida qahramonning soyasini yo'qolishi va unga nisbatan jamiyatdagi munosabat orqali butun yuqorida keltirilgan muammolar o'zini ko'rsatadi. "Oyning gardishi" asaridagi oy va bola o'rtasidagi bog'liqlik, bolaning qalban unga intilishi vositasida muallif tominidan kuchli yashirin ma'nolar ifodalanishini anglab olishimiz mumkin. Ahmad A'zamning o'zbek hikoyachiligining rivojiga qo'shgan hissasi sifatida asarlaridagi voqelikni oddiy, sodda bayon qilish emas, falsafiylik jihatini ochish yuqori o'rinni egallashidadir. Adibning birgina "Oyning gardishi" hikoyasini misol tariqasida keltirishimiz fikrimning bosh isboti bo'la oladi. Bu hikoyada otasining oldiga borayotgan bolaning qorong'u tunda o'zini-o'zi ovutishi, har xil xayollari bilan qo'rquvini bosishi, oy bilan gaplashishi ortida juda katta falsafiylik, ma'nolar yashiringan. Buni tahlil qilish jarayonida murg'akkina go'dak ongida, ichki olamida yuzaga kelayotgan tavg'ishlar, turli jarayonlarni tahlil qilish, yoshiga nisbatan katta mas'uliyat gardaniga yuklanganini sezamiz. Bu jarayon uning shuurini butunlay egallaganki, tushlarida ham oyning gardishini ko'rishi,

uni tahlil qilishga urinishi jajji bosh qahramonning “men”ini yuzakigina tahlil qilib bo’lmasligidan dalolat beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan falsafiylik va hajviylik tushunchalari o‘zbek hikoyachiligini mazmunan yangi bosqichga chiqardi, shaklan boyitdi. Hikoya janri endilikda faqat kundalik hayot voqealarini yoritib beruvchi, voqealarni tasvirlovchi janr bo‘lib qolmay, balki jamiyat va inson, tashqi olam va ichki dunyo o‘rtasidagi murakkablik, ziddiyatlarni ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy-falsafiy, badiiy tafakkur namunasi bo‘ldi. Natijada hikoyalarda inson obrazi tafakkur olamining chegara bilmasligi, badiiy adabiyotning asosiy ma‘nosi voqealar bilan emas, butunlay inson ichki dunyosiga ko‘chishi, ramziy va kinoyaviy ifoda butunlay boshqa qiyofada aks etishi kabi ajralib turuvchi ruh kasb etganini ko‘ramiz. Bu esa o‘quvchining hikoya janri borasidagi bilimlarini oshishiga sabab bo‘ldi. Voqea-hodisani falsafiy jihatdan bayon etish o‘zbek hikoyachilik janrini har tomonlama yuqori darajaga ko‘targan muhim omillar sifatida baholanadi.

Ijtimoiy muhit va inson o‘rtasidagi ziddiyat. Ahmad A‘zam hikoyalarida jamiyatda yuzaga kelayotgan voqea-hodisalarni inson ruhiyati bilan ziddiyat asosida bog‘lab o‘ziga xoslik yaratadi. Bunda tashqi muhit qahramon ichki dunyosi bilan bahs olib boradi. Zamonaviy tilda Ahmad A‘zamning hikoyalarining asosiy sodir bo‘lish markazi qahramonning ichki makonida ekanligidadir. Bunga misol sifatida adibning eng mashhur hikoyasi “Soyasini yo‘qotgan odam” orqali tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu hikoya Ahmad A‘zamning eng yuksak saviyada yozilgan asarlaridan biridir. Hikoyada asosiy jarayonlar Qahramonning ichki dunyosida sodir bo‘ladi. Ushbu jarayonda to‘satdan "soya"ning yo‘lib qolishi va undan keyingi bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarni ma‘lum bor makon-zamonda emas, balki muallifning ichki makonida bo‘lishi va bu jarayonning asl sababini qidirish davomida obrazning o‘zi bilan o‘zi qilgan ichki kurashishini ham birlashtirib yagona bir yaxlit jarayon sifatida ichki va tashqi olam o‘rtadida o‘zaro bog‘liqlik va evrilishlarni yuzaga keltirgan hikoya deb atasak maqsadda muvofiq bo‘ladi. Soyaning yoqolishi natijasida mazmunsiz majlislarni yuzaga kelishini kinoyaviy tarzda ifodalab, ijtimoiy hayotdagi aniq maqsadsiz qilinadigan voqealar, majlisbozliklar tanqid qilinadi. Bu asosida muallif ziyoli qatlam tafakkuridagi bo‘shliqlarni oshkora namoyish etadi.

Ilmiy ong va tashqi olam o‘rtasidagi aloqadorlik. Ahmad A‘zamning hikoyalaridagi qahramonlarning ichki dunyosi ilm orqali, kirobxonligi orqali boshqalarnikidan sezilarli darajada ajralib turadi. Ulardagi ana shu xususiyat tashqi olamdagi ular bilan bo‘layotgan voqealarda bevosita ta‘sir o‘tkazib boradi. Masalan, adibning “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasida muallif soyasining yo‘qolish sabablarini uning ko‘p kitob o‘qigani va o‘qigan kitoblaridagi bo‘lgan voqea-hodisalar uning hayotiga ta‘sirini o‘tkazayotganini aytadi: “... o‘sha shoirning soyasi yo‘q odami dostonidan kitobga, kitobdan maqolaga, yana kitobga,

keyin tarjima kitobga, undan menga o‘tib qolgan-da bir necha yildan keyin mening soyamni yo‘qotgan, ya‘ni o‘sha soyasi yo‘q odam o‘sha shoironing xayolidan, yo‘q, dostonidan botiniy shuuridan dostonni o‘qigan adabiyotchining botiniy shuu...riga, undan boshqasining, oxiri tarjimonning botiniy shuuriga, undan es amening botiniy shuurimga emas, hayotimga o‘tib qolgan”¹²⁰ degan ichki fikrlari, soyasini yo‘qolishiga ich-ichidan sabab qidirishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, faqatgina qahramonning o‘zi emas, balki butun jamiyat ana shu uning ko‘p kitob o‘qigani, kitobxo‘rligini asos keltirib uni ayblashadi, unga nisbatan tanqid nigohi ila qarashadi. Adibning “Oyning gardishi” hikoyasi orqali bola, uning o‘qigan kitoblari, tushi, hayoti o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligi ko‘riladi. Bular orqali ijodkor insonning aqliy faoliyati va tashqi dunyodagi mavjudligi, undagi jarayonlardagi ishtiroki bir-biri bilan chambarchas va uzviy bog‘liqlikka egadir. Bularni hikoyalarida yaqqol ko‘rsatib, ifodalab beradi.

Jamiyatdan ajralib qolish. Adibning deyarli barcha hikoyalarida shaxs o‘zining olami bilan boshqalardan ajralib turadi. Go‘yoki, ikki xil olam insonlari to‘qnash kelgandek bir-birini tushunmaydi, anglamaydi. Ular doimo o‘zi bilan o‘zi gaplashadigan, tashqi dunyodan o‘ziga va dunyoqarashiga mos inson topa olmay qiynaladigan, o‘zini menini qidiradigan, o‘zligini izlaydigan shaxslardir. Ular ilmdan, dunyoviy fikrlashga ega bo‘lgan insonlar bo‘lgani sababli doimo tashqi dunyodan ajralib turishadi. Ushbu holatni Chexovning “Garov” hikoyasidagi tutqunlikdagi huquqshunos obrazi bilan mos kelishini ko‘ramiz. “Garov” hikoyasida ham tutqunlikda umrini faqat kitob o‘qish bilan o‘tkazgan qahramon butunlay dunyoqarashini o‘zgartiradi, tashqi olamdan soviydi, fikrlashi teranlashadi, dunyoviy jarayonlarning qay darajada ekanligini fahmlab, o‘zining ichki borlig‘ini tubdan yangilaydi. Tashqi olam uni qiziqitirmay qo‘yadi. Ahmad A‘zamning ham qahramonlari ana shunday tashqi olamning kamchiliklarini biladi va o‘zini o‘zi dunyodan ajratadi. O‘zini o‘zi izlay boshlaydi. O‘zi bilan o‘zi gaplashadi. Asl “men”ini qidiradi. Shu asosda u jamiyatda o‘zini ajralgan his qiladi va bu xarakteri orqali muammolarga duch keladi.

Badiiy til mahorati. Ahmad A‘zamning eng katta xizmatlaridan yana biri badiiy tilni sun‘iylikdan, bezakli so‘zlardan, “kitobiy” bo‘yoqdor so‘zlardan xalos etganidir. Ijodkor qahramonlarini shunchaki muloqot qildirmaydi, ularning ijtimoiy holati va xarakteriga asoslangan holda nutqlantiradi. U murakkab, falsafiy mazmundagi g‘oyalarni oddiy, sodda inson tilidan shunday ifodalab beradiki, natijada, so‘zlar qisqa, lo‘nda, hayotiy ma‘no kasb etadi. Asar qahramonlari “kitob”lardagi afsonaviy nutqlarni emas, hayotimizda sodir bo‘ladigan, atrofimizda uchraydigan kishilar tiliga so‘zlashadi, muloqot qilishadi. Adib

¹²⁰ Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. // Тошкент: Шарқ, 2004. Б.15

obrazlariga oddiy muloqot shaklini topshiradiki, ammo bu ma'noli va chuqur badiiy imkoniyatlarni beradi. Ijodkorning eng katta yutug'i vaziyatni har tomonlama teran o'ylagan holda, qalamiga solib o'quvchiga yetkazib bergani. Bu kabi hikoyalar hayotimizning, rivojlanishimizning sababchisi bo'la oladigan, tarixidan xabardor qiladigan asarlar hisoblanadi. Abdulla Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas"¹²¹, degan fikrlari naqadar haqiqat ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Ijodkorning quroli so'z. Bir so'z orqali ko'ngilga yo'l topish mumkin. Birgina so'z orqali dunyoni vayron etish mumkin, Bari esa inson zoti bilan bog'liq. Aslida har bir inson tug'ilgandan to bu dunyoni tark etguncha uzoq yo'lni bosib o'tadi. Ammo shunisi qiziqki, odamzotning qanaqa manzilga yetib borishi shu yo'l – umr yo'lini qanday bosib o'tganiga bog'liq. Buning isboti o'laroq uning ko'pgina asarlarida ilmga bo'lgan qiziqish va bu ilm olish jarayonini atrof-muhit tomonidan qattiq tanqid ostiga olinishi, norozilik kayfiyatini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Buning natijasida, Adibning ijodiyoti nafaqat adabiyotshunoslar uchun, balki tilshunoslar uchun ham asosiy va eng zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad A'zam. Adabiy asar – til hodisasi. Adabiy suhbat. // Yoshlik, 2012. №6.
2. Аҳмад Аъзам. Соясини йўқотган одам. // Тошкент: Шарк, 2004.
3. Ahmad A'zam Xalqimizning milliy uyg'onishiga, o'zligini anglashiga xizmatim singan. / BBC NEWS bilan suhbat [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: www.bbc.com.
4. Anton Chexov. Garov. (hikoya) Rus tilidan Abdulla Qahhor tarjimai // Toshkent: Mutolaa, 2024.
5. Doston Abdujabbor o'g'li Xolmatov. Hikoyalarda davr va qahramon masalasi (maqola). SCIENTIFIC PROGRESS jurnali [Elektron resurs] Kirish rejimi: <https://cyberleninka.ru>
6. Faxriyor. Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon. [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: www.kh-davron.uz.
7. Murod Muhammad Do'st "Ahmad A'zam so'zning qadriga yetgan inson edi" [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: www.ahmadazam.uz.

¹²¹ Abdulla Qahhor. Asarlar. 5 jildlik. 5-jild: Maqolalar, ocherklar, xatlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 124-130.